ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Nozliya Normurodova**
Samixon Ashirboyev
Abdumurod Tilavov

Mas’ul kotib: Anvarbek Turdialiyev

Tahrir kengashi

Mominova Bag‘dan (Ostona), Mingboyev Nurlon (Chimkent), Ercan Alkaya (Turkiya), Turdimov Shomirza (O‘zRFA), Jo‘raqoziyev Nodirjon (VM), Alniyazov Ayitmurat (Nukus), Xolmanova Zulxumor (ToshDO‘TAU), Ibrohimov Yo‘ldosh (Nukus), Saidqulov Ilhom (ToshDO‘TAU), Murodova Nigora (Navoiy), Jabborov Xo‘jamurod (Qarshi), Darvishev Ibrohim (Namangan), Aliqulova Hulkar (ToshDO‘TAU), Xidraliyeva Zoxira (ToshDO‘TAU), Norboyeva Shukurjon (Urganch), Rahmonov Navro‘z (Navoiy), Ibragimova Zamira (Nukus), Hakimova Muhayyo ToshDO‘TAU), Umurzoqova Marhabo (ToshDO‘TAU), Ubaydullayev Alisher (O‘zMU), Alimardanov Elyor (ToshDO‘TAU), Egamqulov Kamoliddin (ToshDO‘TAU), Qodirov Umarjon (ToshDO‘TAU), Sayfullayev Baurjon (O‘zMPU).

“O‘zbekiston: til va madaniyat jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2021-yil 30-oktabrdagi № 308/6-sonli qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. “O‘zbekiston: til va madaniyat jurnalining “Folklorshunoslik. Shevashunoslik” seriyasi - Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro‘yxatidagi “O‘zbekiston: til va madaniyat” akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, o‘zbek folklorining dolzarb masalalari, o‘zbek dostonchiligi, jahon folklori, folklor janrlari, turkiy xalqlar folklori, folklor va yozma adabiyot, adabiyotimizdagi folklor motivlari, o‘zbek shevalarining fonetik, grammatik va leksik xususiyatlari, tarixiy dialektologiya, shevalarning sotsiolingvistik talqini, areal lingvistika, folklor dialektologiyasi, adabiy til va sheva munosabatlari, sheva ma’lumotlarini o‘zbek tili korpusiga teglash, dialektologiyaning nazariy asoslari, jahon dialektologiyasidagi ilg‘or g‘oyalarga oid tadqiqot natijalari nashr qilinadi.

Jurnalning maqsadi – ko‘rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e’lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e’lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-un.uz

MUNDARIJA

Shevashunoslik

Marifatxon Anarbayeva
Turk-Barlos urug‘i nutqida saqlanib qolgan qadimiy turkiy lahja elementlari (Marhamat tumani misolida) 6

Adolat Bekturdiyeva
O‘g‘uz lahjasidagi so‘z birikmalari va yondosh til birliklari 13

Muattarxon Turdixo‘jayeva
O‘zbek tili milliy lingvistik atlasini yaratish tamoyillari 22

Feruza Aminova
Matnazar Abdulhakim she’riyatida morfologik dialektizmlarning aks ettirilishi 29

Durdona Ermatova
The historical development and modern aspects of evidentiality in uzbek language 36

Nazirov Salimbek
Ingliz va o‘zbek tillaridagi ertaklarda uchraydigan barqaror birikmalarni muqobillashtirish masalalari 48

Dilnavoz Asatullayeva
Umumta’lim maktablarida morfonologiyani o‘qitish metodikasi (yozma va og‘zaki nutq misollari asosida) 55

Dilso‘z Rahmonova
Samarqand qipchoq shevalarining areallari 62

Islom Bo‘riyev
Iboralar komponentlari tahlili: O‘TIL (6 jildli; 2022) materiallari asosida 70

Gavhar Toshtemirova
“Gulnor pari” dostonining fonetik -leksik xususiyatlari 80

Rustam Esanov
Xalq ertaklarida qo‘laniladigan ramzlarning lingvistik xususiyatlari . 88

Botir Raxmonov
Til va madaniyat munosabati, etnodialektal birliklarning lingvomadaniy talqini 97

Hayotxon Salayeva
Gurlan leksikasidagi ayrim so‘zlarning “Devonu lug‘otit turk” asari bilan qiyosi 105

Sadoqat Rajabova
Ishtixon shevasining o‘z va o‘zlashma qatlam leksikasi 116

Shahlo Ahmadjonova
Namangan qarluq shevalarining fonetik xususiyatlari va areal lingvistik o‘ziga xosliklari 129

Shirinoy Shuhratova
O‘zbek shevalarida kulolchilik terminlarining o‘rganilishi 138

ISSN 2181-922X 80 — 87

“GULNOR PARI” DOSTONINING FONETIK -LEKSIK XUSUSIYATLARI

Toshtemirova Gavhar[1]

Abstrakt

O‘zbek tilining tasviriy, badiiy-estetik imkoniyatlari va ularning xalq og‘zaki ijodida qanday qo‘llanilganligini o‘rganish hozirgi kunda muhim yo‘nalishlardan biri bo‘ib turibdi. Xalq og‘zaki ijodi asarlari dialektizmlarni o‘rganish orqali shevalarning sayqallanib borish jarayononi bilib olish mumkin bo‘ladi. Maqolada “Xalq og‘zaki ijodi” turkumidagi “Gulnor pari” dostonidagi shevalarni o‘rganish usullari, o‘ziga xosliklari va hozirgi o‘zbek shevalariga o‘xshash hamda farqli jihatlarini yoritishga harakat qilingan. Fonetik xususiyatlari. Dostonda og‘zaki ijodga xos fonetik hodisalar — singarmonizm, assimilatsiyasi va dissimilatsiyasi, tovush o‘zgarishlari (masalan, qadimgi turkiy tovushlarning saqlanishi yoki dialektal talaffuzlar) yaqqol namoyon bo‘ladi. Baxshi ijrosi ritmik va melodik talaffuzga asoslangani uchun doston matnida sheva xususiyatlari kuchli aks etishi kuzatildi hamda tahlil qilindi.

Leksik xususiyatlari. Leksik jihatdan “Gulnor Pari” dostonida arxaik so‘zlar, folklor terminlari, epik formulalar, mifologik obrazlar (pari, jahon, dev va boshqalar) va dialektal leksika boy ifodalangan. Unda turkiy, fors-tojik qatlamlari va xalq og‘zaki ijodiga xos metaforik, sinonimik boyliklar mavjud. Doston leksikasi epik uslubga xos takrorlanuvchi birliklar (formula), kinoya, ramziy ifodalar va xalqona iboralarni o‘z ichiga oladi. Bu xususiyatlar asarning milliy ruhini, tarixiy va madaniy qatlamlarini ochib beradi hamda o‘zbek tilining leksik boyligini namoyish etadi.

Kalit so‘zlar. Sheva, morfonologik dialektizm, doston, “Xalq og‘zaki ijodi”, leksika, fonetika, .

[1] *Toshtemirova Gavhar* – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti Universiteti tayanch doktoranti
E-mail: gavhartoshtemirova@mail.ru
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0002-5298-2117
Iqtibos uchun: *Toshtemirova G.* 2025. *“Gulnor pari” dostonining fonetik -leksik xususiyatlari".* O‘zbekiston. til va madaniyat. Folklorshunoslik. Shevashunoslik. 2: 80-87. Doi. 10.52773/tsuull.uzlcfolklore.2025/UAQA4327

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi, xususan, dostonlar, nafaqat badiiy, balki tilshunoslikning turli sohalari uchun ham qimmatli manbadir. Ularning tili orqali xalq tili, tarixiy til qatlamlari, shevalar va dialektlarning shakllanishi, o‘zgarishi, badiiy nutqda qo‘llanishi yuzasidan muhim ma’lumotlar olinadi. Ozbek millatining ijodida milliy urf-odatlar, hayotiy voqeliklarni ifodalashning kengligi va jozibadorligi bilan alohida ajralib turuvchi dostonlar shevasini o‘rganish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ma’lumki, O‘zbek xalq dostonlarini tilshunoslik nuqta’i nazaridan o‘rganishga o‘tgan asrning 40 yillaridan boshlab e’tibor qaratila boshlandi. Sh.Shoabdurahmonov “Ravshan” dostoni tilidagi badiiy tasvir vositalariga bag‘ishlangan dissertatsiyasi bilan xalq dostonlari tilini qanday o‘rganish haqida ilmiy-nazariy fikrlarni ilgari surdi. Shundan keyin bu yo‘nalishdagi izlanishlar asta-sekin rivojlanib bordi.

Maqolada ko‘plab olimlarning izlanishlariga tayanilgan: Sh. Shoabdurahmonov, A. Holiqov, D. Ashurov, G. Jumanazarova, I. Xudoynazarov va boshqalar. Ularning asarlari xalq dostonlari tilining stilistik, semantik, fonetik, lingvokulturologik qatlamlarini yoritib bergan. Xususan:

- G. Jumanazarova – lingvostatistik tahlil asosida poetik birliklarni o‘rgangan.

- D. Ashurov – “Alpomish” dostonida milliy-madaniy belgilarni tahlil qilgan.

- A. Eshmuratov – “Xoldorxon” dostonining stilistik strukturasini chuqur o‘rgangan.

Bu ilmiy meros “Gulnor pari” dostoni kabi asarlarni yanada kengroq nuqtai nazardan tahlil qilish imkonini beradi.

Olib borilgan tadqiqotlarga e’tibor qaratilsa, ularning ko‘pchiligi dostonlar leksikasi va ularning tilga munosabatiga bag‘ishlanganligini ko‘rish mumkin bo‘ladi.

“Gulnor pari” dostoni o‘zining xalq orasida keng tarqalganligi, ko‘p variantliligi sababli ayni jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi. Po‘lkan shoir repertuaridagi “Gulnor pari” dostonini ham leksik-genetik va mavzuiy-semantik guruhlarga bo‘lib o‘rganish mumkinligi haqida ustoz olimlarimiz ta’kidlaydilar. Doston tilidagi ba’zi o‘z va o‘zlashgan qatlam, so‘zlarning genetik tavsifi berilgan. Doston tilidagi antroponim, toponim, etnonim, astronim, harbiy atamalar, maishiy turmush bilan bog‘liq birliklar, kasb-hunarga oid so‘zlarni alohida guruhlarga ajratib olish mumkin. Shuningdek, shakl va mazmun munosabatiga ko‘ra sinonim, antonim, omonim so‘zlar ham tahlil qilinadi. Po‘lkan shoir ijodi boshqa tilshunoslarning ham diqqatini tortib kelgan. Chunki uning dostonlarida o‘zbek tilining behad boy imkoniyatlari namoyon bo‘ladi. A.Holiqovning “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dos-

toni tilining leksik-semantik xususiyatlari tadqiqiga bag‘ishlangan dissertatsiyasida til birliklari lingvostilistik usulda tadqiq qilingan. Asar leksikasining lug‘aviy qatlamlari, semantik-uslubiy jihatlari hamda dostonchining so‘z qo‘llash mahorati haqida so‘z yuritilgan. Ergash Jumanbulbul dostonlaridagi antroponimlarning semantik va uslubiy xususiyatlari haqida tadqiqot olib borgan I.Xudoynazarov o‘zbek xalq dostonlaridagi ayrim qahramon ismlarining tanlanishiga diqqat qaratadi. Tadqiqotda ismlarning nominativlik bilan bir qatorda emotsional-ekspressiv vazifa ham bajarishi, nomlardagi hissiy ta’sirchanlik leksik-fonetik, leksik morfologik, leksik-semantik usul bilan yuzaga kelishi hamda har bir usulning o‘ziga xos qator xususiyatlarga egaligi asarning ta’sirchanligini oshirishda, ijodkorning badiiy niyatini ro‘yobga chiqarishda muhim vosita ekanligi haqidagi masalalar yoritiladi. Tahlillardan ko‘rinadiki, o‘zbek tilshunoslari xalq dostonlari tiliga uzoq yillardan beri e’tibor qaratib keladilar. Ko‘pchilik tadqiqotlar dostonlar tiliga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, leksik semantik sath bilan chegaralangan. Biroq G.Jumanazarovaning doktorlik dissertatsiyasi bu boradagi keng ko‘lamli ish hisoblanadi. Unda Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li dostonlari tilidagi so‘zlarning vazifaviy-mazmuniy, etimologik va lingvostatistik xususiyatlari hamda lingvomadaniy birliklarning badiiy-estetik vazifalari ochib berilgan. G.Jumanazarova o‘z dissertatsiyasida Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li dostonlaridagi so‘zlarning tarixiy-etimologik va vazifaviy-mazmuniy xususiyatlarini keng yoritgan. Shuningdek, dostonlar matnidagi fonetik, leksik-grammatik qurilishidagi birliklarning qo‘llanilish miqdorini statistik tahlil usullari asosida aniqlagan. Tadqiqotchi dostonlar tili lingvopoetikasini aniqlash orqali uslubiy formulalarning tuzilmaviy poetik tabiati va leksik-stilistik qatlamlarning semantikasi hamda iboralarning tuzilmaviy semantik va konnotativ ma’nolaridagi o‘ziga xosliklarni ham aniq misollar asosida ko‘rsatib bergan. Shuningdek, dostonlar tilidagi birliklarning lingvopoetik imkoniyatlari va badiiy-estetik qimmatini yoritgan. Aytish mumkinki, bugun o‘zbek tilshunosligi tamomila yangi sifat bosqichiga ko‘tarilib, bu borada amaliy va nazariy tilshunoslik masalalari yuzasidan jiddiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, tilshunoslikning lingvokulturologiya sohasida amalga oshirilayotgan ishlarning yildan-yilga kengayib, yangicha mohiyat kasb etib borayotgani, ishlar ko‘lami ona tilimizning o‘ziga xos imkoniyatlarini namoyon qilishda nechog‘li samarali ekanligini tilshunoslar yaxshi bilishadi. Bugungi o‘zbek tilshunosligining taraqqiyot darajasini tilning jamiyat, shaxs hayotidagi o‘rni, milliy o‘ziga xosligi, nutqning idrok qilinishi va olamning lisoniy manzarasi bilan bog‘liq masalalarning teran ilmiy tadqiq qilinishi bilan belgilash mumkin. Bu borada ancha-muncha jiddiy tadqiqotlar yuzaga

keldi va ularning har biri tilshunosligimizning e’tiborga arzigulik yutuqlaridir.

D. Ashurov o‘zining “Alpomish” dostonining lingvokulturologik xususiyatlari mavzusidagi doktorlik (PhD) dissertatsiyasida “Alpomish” dostoni matnidagi milliy-madaniy o‘ziga xoslikni ifodalovchi lisoniy birliklarni tasniflab, ularni doston variantlari doirasida taqqoslagan. Dostonda qo‘llangan vaqt va rang tushunchalarini ifodalovchi birliklarda milliy-madaniy belgilarning voqelanishini asoslashg a harakat qilgan. Shuningdek, doston variantlari matnidagi o‘xshatishlarni, frazeologizmlarni, maqol va matallarning ifoda xususiyatlari hamda madaniy belgilari o‘rtasidagi aloqadorliklarni teran tadqiq qilgan.

A.Eshmuratov “Xoldorxon” dostonining stilistik xususiyatlari bo‘yicha monografik tadqiqot olib borgan. Dissertatsiya “Xoldorxon” dostonining lingvostilistik xususiyatlari (Ergash Jumanbulbul o‘g‘li varianti asosida)” deb nomlanadi. Uning dastlabki bobida dostonning fonetik xususiyatlari yoritilgan. Unda asosiy e’tibor tovushlarning almashishi, orttirilishi, tushishi va boshqa fonetik hodisalarning lisoniy xususiyatlariga qaratilgan. Tovushlar alternatsiyasi, ya’ni fonetik almashinuvi doston tilidagi asosiy fonetik xususiyatlardan biri ekanligi sanab o‘tilgan: [a>o] ado – oda; [a>i] palla – pilla; [a>u] manov – munov; [b>p] bo‘lib – bo‘p kabi. Ishda tovush orttirilishi (qahr – qahar, ajdar –ajdarhol), epiteza (xudo – xudoy); tovush tushishi apokopa (qolmay – qomay), diereza (o‘g‘illar – ullar), eliziya (bora olmaydi – borolmaydi) kabi fonetik hodisalar ko‘rinishida namoyon bo‘lishi haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, grammatik vositalarning dostondagi funksional-stilistik imkoniyatlariga ham etibor qaratilgan. Unda doston aytishning o‘ziga xos uslubi matnning o‘ziga xos sintaktik qurilishini ham shakllantirishi haqida so‘z boradi. Ayniqsa, uyushiq bo‘lak, kirish bo‘lak va undalmalarni qo‘llashda nasriy va she’riy parchalardagi qofiyalarda yaqqol ko‘zga tashlanib turishi misollar asosida dalillangan. Mazkur tadqiqotda faol qo‘llangan tasviriy vositalar ham tahlilga tortilgan. “Xoldorxon” dostonining tili va uslubini belgilovchi lingvistik omillar sifatida xalq maqollari va o‘xshatish, metafora, epitet kabi troplar hamda stilistik formula, takror kabi poetik figuralarga, ayrim subyektiv baho shakllariga murojaat qilingan. Tadqiqotchi takror masalasiga to‘xtalib, quyidagi fikrlarni bayon qiladi: “Shoir foydalangan takror usuli ifodaning musiqiyligi va ohangdorligiga, ifoda maromining saqlanishiga bo‘ysundirilgan. Stilistik formulalar esa doston poetikasining asosiy elementlaridan biri sanaladi. Ularning alohida ko‘rinishlari muayyan leksik-semantik va grammatik-stilistik vazifani bajarishga xizmat qilgan”.

Yuqoridagilardan koʻrinadiki, oʻzbek tilshunosligida lingvopoetik aspektda amalga oshirilgan ilmiy maqolalar, monografiyalar, dissertatsiyalar anchagina. Ularda oʻzbek tilining badiiy nutqda namoyon boʻladigan poetik ifoda imkoniyatlari chuqur oʻrganilgan. Albatta, bu ishlarning oʻzbek lingvopoetikasini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilishiga shubha yoʻq. Mazkur tadqiqotlar kelgusida oʻzbek tilshunosligida shu yoʻnalishda amalga oshiriladigan ilmiy izlanishlar uchun nazariy asos vazifasini bajara oladi.

"Gulnor pari" dostoni oʻzbek xalq ogʼzaki ijodining yorqin namunalaridan biri bolib, unda xalqning hayoti, orzulari, qadriyatlari ifoda etilgan. Bu doston turli mintaqalarda aytilganligi uchun unda dialektal (shevaga oid) xususiyatlar ham uchraydi. Quyida dostonning dialektal xususiyatlariga bir nechta asosiy jihatlariga toʻxtalamiz:

1. Leksik (soʻz boyligi) xususiyatlar: Har bir hududga xos boʻlgan mahalliy soʻzlar ishlatiladi. Masalan, "Xudo xohlasa" oʻrniga "Xudo xolasa" (Surxondaryo shevasi) "shirinlik" oʻrniga "qand-qurs" (Qashqadaryo shevasi). Hayot tarziga mos etnik yoki kasb-hunar atamalari bolishi mumkin.

2. Fonetik (talaffuz) xususiyatlar: Unli va undosh tovushlarning oʻzgarishi: "keldi" oʻrniga "kildi" (janubiy shevalarda), "boldi" oʻrniga "buldi" yoki "boldi", Soʻzlar qisqartirib aytiladi: "nima qilaylik" oʻrniga "nmaqilaylik".

3. Morfologik xususiyatlar (soʻz yasalishi va shakllanishi): Fel va ot shakllari mintaqaga qarab oʻzgaradi: "Boraman" oʻrniga "boraman-de" "boraman-ku" (janubda keng tarqalgan) o "Bordim" oʻrnio - "erdan", "bordi-man" shakllari.

4. Sintaktik xususiyatlar (gap tuzilishi): Jumla tuzilishida mahalliy nutqqa xos gap tartibi: "Men koʻrdim uni" oʻrniga "Uni men koʻrdim", Koʻmakchi soʻzlar yoki ortiqcha yuklamalar qoʻshilishi: "o Ketdi-da", "Boraylik-e" kabi. Bu jihatlar matnning ritmini, musiqiyligini, emotsional taʼsirini oshiradi.

5. Fonetik urgʼu va intonatsiya: Ayrim soʻz va gaplarda urgʼuning oʻzgarishi orqali shevaga xos ohang seziladi. Fonetik urgʻu va intonatsiya: "padar" - "dada" "dadas" (leksik-fonetik oʻzgarish, soʻzning shevadagi shakli), "topolmabdi" -"topomagan" (yordamchi feʼlning shevaga xos talaffuzi), "emish" - "ekan" (xabarlovchi shaklning shevaga moslashuvi). Ayrim soʻz va gaplarda urgʼuning oʻzgarishi orqali shevaga xos ohang seziladi.

6. Stilistik va poetik jihatlar: Shevalar orqali yaratilgan stilistik effektlar dostonni jonlantiradi:

- Takrorlar, epitetlar, metaforalar.
- Frazeologizmlar: "Koʻzga qorongʻi boʻlish", "Boshi osmonga yetmoq".

7. Dialektal stilistik shakllar: “topomagan”, “boromadi” – ular muayyan emotsional ta’sir yaratadi. Dostonchining ijodkorlik uslubi ham ko‘p hollarda hududiy shevalar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bular uslubiy jihatdan xalq nutqining go‘zalligini ochib beradi.

8. Lingvokulturologik yondashuv: Dialektal xususiyatlar faqat lingvistik emas, balki madaniy belgilarni ham o‘z ichiga oladi. “Gulnor pari” dostonidagi so‘z va iboralar mahalliy urf-odatlar, e’tiqodlar, qadriyatlar bilan chambarchas bog‘langan. Bu esa dostonni lingvokulturologik nuqtayi nazardan tahlil qilishni taqozo etadi.

Xulosa

“Gulnor pari” dostoni – o‘zbek xalq ijodining rang-barang shevalarini o‘zida jamlagan, tilshunoslik uchun muhim dialektal manba hisoblanadi. Ushbu doston dialektologiya, stilistika, fonetika, morfologiya, sintaksis, lingvopoetika va lingvokulturologiya sohalarida ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun qulay zamin yaratadi.

Dialektal xususiyatlar dostonning faqat tilini emas, balki xalq ruhiyati, qadriyatlari, tafakkurini ham ifodalaydi. Shu bois, bu kabi asarlarni o‘rganish – nafaqat ilmiy, balki ma’naviy va madaniy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

1. M. Saidov., Z. Husainova. “Xalq og‘zaki ijodi” O‘zbek xalq dostonlari: “Gulnor pari” dostoni. Oltin qalam\\ Toshkent – 2023.

2. M. Murodov. “Xalq og‘zaki ijodi” O‘zbek xalq dostonlari: “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostoni. Ilm-ziyo-zakovat\\ Toshkent – 2021.

3. Zuhra Yo‘ldosheva. “O‘ZBEK XALQ DOSTONLARINING TIL XUSUSIYATLARI TADQIQI” “General history and culture – the foundation of unity and sustainable development of Turkic peoples” international scientific and practical conference” APRIL 7-8, 2025. 234 pages.

4. Ashurov D.A. «Alpomish» dostonining lingvokulturologik xususiyatlari. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktoriri (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Namangan, 2021.

5. Jumanazarova G.U. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li dostonlari tilining lingvopoetikasi (Leksik-semantik, lingvostilistik va lingvostatistik tahlil). Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati – Toshkent, 2017. – 76 b.

6. Rahimov A.S. O‘zbek xalq dostonlari leksikasining qiyosiy-tarixiy tahlili (Ergash Jumanbulbul o‘g‘li ijodi misolida): Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati – Samarqand, 2002.

PHONETIC AND LEXICAL FEATURES OF THE POEM "GULNAR PARI"

Toshtemirova Gavhar[1]

Abstact

The study of the descriptive, artistic and aesthetic possibilities of the Uzbek language and their use in folk oral art is currently one of the important directions. By studying the dialectisms of folk oral art works, it is possible to understand the process of dialect refinement. The article attempts to highlight the methods of studying dialects in the epic poem "Gulnor Pari" in the "Folk Oral Art" category, their peculiarities, and their similarities and differences with modern Uzbek dialects. Phonetic features. The epic clearly demonstrates phonetic phenomena characteristic of oral art - synharmonism, assimilation and dissimilation, sound changes (for example, the preservation of ancient Turkic sounds or dialectal pronunciations). Since Bakhshi's performance is based on rhythmic and melodic pronunciation, a strong reflection of dialect features in the text of the epic was observed and analyzed.

Lexical features. Lexically, the epic poem "Gulnor Pari" is rich in arch ic words, folklore terms, epic formulas, mythological images (fairy, world, giant, etc.) and dialectal vocabulary. It contains Turkic, Persian-Tajik layers and metaphorical, synonymous wealth typical of folk oral art. The lexicon of the poem includes recurring units (formula), irony, symbolic expressions and folk expressions typical of the epic style. These features reveal the national spirit, historical and cultural layers of the work and demonstrate the lexical richness of the Uzbek language.

References

1. M. Saidov., Z. Husainova. "*Xalq og'zaki ijodi*" O'zbek xalq dostonlari: "Gulnor pari" dostoni. Oltin qalam\\ Toshkent – 2023.

2. M. Murodov. "Xalq og'zaki ijodi" O'zbek xalq dostonlari: "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni. Ilm-ziyo-zakovat\\ Toshkent – 2021.

[1] *Toshtemirova Gavhar* - PhD student at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi
E-mail: gavhartoshtemirova@mail.ru
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0002-5298-2117
For citation: *Toshtemirova G.* 2025. "*Gulnor pari" dostonining fonetik -leksik xususiyatlari".* Uzbekistan. Language and Culture. Folklore. Dialectology. 2: 80-87. Doi. 10.52773/tsuull.uzlcfolklore.2025/UAQA4327

3. Zuhra Yo‘ldosheva. “*O‘ZBEK XALQ DOSTONLARINING TIL XUSUSIYATLARI TADQIQI”* “General history and culture – the foundation of unity and sustainable development of Turkic peoples” international scientific and practical conference” APRIL 7-8, 2025. 234 pages.

4. Ashurov D.A. «*Alpomish» dostonining lingvokulturologik xususiyatlari*. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktoriri (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Namangan, 2021.

5. Jumanazarova G.U. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li dostonlari tilining lingvopoetikasi (Leksik-semantik, lingvostilistik va lingvostatistik tahlil). Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati – Toshkent, 2017. – 76 b.

6. Rahimov A.S. O‘zbek xalq dostonlari leksikasining qiyosiy-tarixiy tahlili (Ergash Jumanbulbul o‘g‘li ijodi misolida): Filologiya fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati – Samarqand, 2002.

Jurnal 2017-yil 26-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan. Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan (30.10.2021. No 308/6).

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi 103-uy. Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

E-mail: uzlangcult@gmail.com